



ADABIYOT DARSALARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

**Otaqova Mohira Zaripboevna
Qurbanova Dilafruz Matqurbanovna**

Xorazm viloyati Urganch tumani 15-sod umumiy o'rta ta'lif maktabi Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lif adabiyot darslari jarayonid didaktik o'yin-tehnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lif tizimi, adabiyot, metodika, didaktika, pedagogik texnologiya.

Ona tili va adabiyot fani mifik tabda o'qitiladigan darslardan o'zining nutq madaniyatiga bog'liqligi bilan alohida ajralib turadi. Ona tili va adabiyot faniga qiziqqan o'quvchi o'z-o'zidan badiiy adabiyotga oshno bo'ladi. Shunday ekan, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish mas'uliyati ona tili va adabiyot fani o'qituvchisining zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Fanni o'qitishda turli usullarni yarata olish, pedagogik mahoratni ko'rsata bilish bu o'qituvchining jamiyat oldidagi burchi sanaladi. Demak, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi har sohada o'z faolligini ko'rsata bilishi kerak. Bu o'qituvchi har bir darsini o'ziga xos tarzda qiziqarli olib borishi, darsda yangidan yangi usul va uslublarni o'z o'rnida qo'llay bilishi, o'quvchi shaxsiga munosabatini yaxshi yo'lga qo'yishi bilan belgilanadi. O'zini hurmat qiladigan o'qituvchi buyuk mutafakkirlardan biri ta'kidlaganidek, hech qachon "tinchlaning" so'zini ishlatmasligi lozim.

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi shu o'rinda o'z darsini biror-bir rivoyat yoki, to'rtlik bilan boshlasa, o'z-o'zidan bora- bora o'quvchilarda ham o'sha odad shakllanib boradi. O'quvchilar nazarida o'qituvchi, o'z idealligini namoyon qilishigina uning obro'yini oshiradi. Xulosa qiladigan bo'lsak, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi hamma vaqt boshqa fan o'qituvchilaridan bir qadam oldinda yurishi talab qilinadi. Yangicha usul, yangicha metod, eng avval, adabiyotda bo'y ko'rsatishiga erishish lozim. Biz bugun sodda, ko'p mehnat talab qilmaydigan, shuning bilan birga o'quvchini ham hushyorlikka, ham faollikka undaydigan usullardan biri haqida fikr yuritmoqchimiz. Bu hammaga ma'lum "Domino" o'yinidir. Bu o'zin takrorlash mavzularini tashkil etishda juda qo'l keladi. Buni biz biror sinf negizida ko'rib chiqamiz.

Masalan 8-sinf ona tili darsligi Sintaksis bo'limining birinchi qismi- so'z birikmasi sitaksisidan iborat Ajratilgan har bir tarqatmaga bir savol va bir javob yoziladi.

1. So'z birikmasida bosh (hokim) so'z va ergash (tobe) so'z qanday vositalr yordamida bog'lanadi? So'z birikmasida ergash (tobe) so'z bosh (hokim) so'zga hech qanday grammatik vositasiz faqat ohang yordamida biriksa, tilshunoslikda bitishuv munosabatli so'z birikmasi deb nomlanadi?





2. Bosh (hokim) so'zning talabi bilan ergash (tobe) so'zning ma'lum grammatik vositalar (kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar) ni olishi qanday nomlanadi? Ergash (tobe) so'z bosh (hokim) so'zga ko'makchilar, kelishik qo'shimchalari hamda ohang yordamida bog'lanadi.

3. So'z birikmasida ergash (tobe) so'z bosh (hokim) so'zga hech qanday grammatik vositasiz faqat ohang yordamida biriksa, tilshunoslikda qanday nomlanadi? So'z birikmasida ergash (tobe) so'z bosh (hokim) so'zga kelishik qo'shimchalari, ko'makchilar va ohang yordamida birikadi

4. Moslashuvli bog'lanishda ergash (tobe) so'z tarkibida qanday vosita, bosh (hokim) tarkibida qanday vosita bo'ladi? Bosh (hokim) so'zning talabi bilan ergash (tobe) so'zning ma'lum grammatik vositalar (kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar) ni olishi boshqaruv munosabatlari so'z birikmasi deb nomlanadi.

5. Sifatlanmish nim? Qaratqich kelishigi tobe so'z tarkibida, egalik qo'shimchasi hokim so'z tarkibida keladi.

6. Boshqaruvli bog'lanishda qanday hodisa yuz beradi? Sifatlovchi aniqlovchi tobelanib kelgan so'z deyiladi.

Bu "Domino" o'yinining alohida ajralib turadigan jihat shuki, o'quvchini hushyorlikka undash bilan birga uning faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Agar o'qituvchi o'quvchilarga uyda berilgan vazifaga qo'shimcha tarzda "Domino" tayyorlab kelishni aytса, o'quvchilar, albatta, savolni yozish bilan birga o'sha savolga javobni ham bilib oladi. Ona tili va adabiyot fanining asosiy maqsadi o'quvchi fikr-dunyoqarashiga ta'sir etibgina qolmasdan, uni chiroyli nutq egasi sifatida shakkantirishdan iborat ekan, fan o'qituvchisi yuqoridagi kabi didaktik o'yinlarni dars jarayonida keng miqyosda tashkil etib, o'z o'quvchilarini jamiyatning har sohasida faol inson qilib tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilgan holda fan xonasiga kirishi zarurdir, qolaversa bu uning vijdoniy burchi ekanligini sedan chiqarmasa bo'lgani.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Qodirov, H. Ne'matov, M Abduraimova, R. Sayfullayeva, B. Mengliyev. Ona tili. 8-sinf . Toshkent "Cholpon" NMIU 2019-yil.

2. N. Rasulova. Ona tilidan ma'ruzalar. III kitob Toshkent. "Nurafshon ziyo yog'dusi" 2018- yil

